

**DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATIDA AHOLI TURMUSH
DARAJASINI OSHIRISH TADBIRLARI**

Samiyeva Gulnoza Toxirovna¹

¹ QarDTU dotsenti

Sharopova Mohigul Hamdamovna¹

¹ KIU magistratura talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 15.05.2025

Revised: 16.05.2025

Accepted: 17.05.2025

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va ijtimoiy sohaga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko‘p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan roliga bog‘liq. Chunki milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga asosan quyidagi yo‘llar orqali erishiladi:

KALIT SO’ZLAR:

KIRISH. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va ijtimoiy sohaga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko‘p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan roliga bog‘liq. Chunki milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga asosan quyidagi yo‘llar orqali erishiladi:

- 1) iqtisodiyotni tartibga solishning bozor usullarini qo‘llash;
- 2) iqtisodiyotni faqat davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarish;
- 3) takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg‘unlashtirish.

Hududlar tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonlarini boshqarish muammolariga ko‘plab xorijiy va mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlari bag‘ishlangan. Xususan, rossiyalik tadqiqotchilar V.K. Krutikov, Y.V. Zaysev, T.V. Dorojkina, O.I. Kostina, O.V. Fedorovalarning ishida mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning elementlari, belgilari, hududiy boshqaruvning dasturiy maqsadli usullari, hududiy boshqaruvning xorijiy va mahalliy amaliyotlari, zamonaviy boshqaruv yangiliklari, shu jumladan, ijtimoiy-psixologik jihatlari o‘rganilgan. A.V. Pogoninning maqolasida shahar va klasterlarning asosiy rolini hisobga olgan holda mintaqqa rivojlanishining asosiy omillari aniqlangan. Unda

shaharlarning hududlar iyerarxiyasidagi o‘rnini aniqlash bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqildi. Klasterning mualliflik modeli taklif qilingan. D.A.Kondratyevning maqolasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tasnifi aniqlangan.

Qishloq munitsipaliteti shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining konsepsiysi va mohiyati olib berilgan. M.A.Nikolayev, M.Y.Maxotayeva tadqiqotlari esa mintaqaviy iqtisodiyot va menejment masalalari taqdimotiga bag‘ishlangan. Xususan, mualliflar konseptual apparatni, shuningdek, turli darajadagi hududiy tizimlardagi jarayonlarni o‘rganishning asosiy nazariy yondashuvlarini taqdim etadi. Professor M.Y.Sheresheva tahriri ostida yozilgan monografiyada munitsipalitetlarning tarmoqdagi o‘zaro ta’sirini o‘rganishning nazariy jihatlari o‘rganilib, uni modellashtirishning amaldagi usullari va yondashuvlari yoritilgan. M.A.Anishenko, O.K.Volivak va boshqa mualliflar monografiyasida fan va ta’limning muayyan sohalarida nazariy yondashuvlar va tushunchalar, tahliliy sharhlar, amaliy yechimlar keltirilgan. O‘zbekistonlik tadqiqotchi X.S.Asadovning maqolasida mamlakatimiz hududlari iqtisodiy o‘sish dinamikasi, ularning tabaqlanishi, mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarishining tarmoq tarkibidagi o‘zgarishlar va mavjud nomutanosibliklar tahlil qilingan. Shular bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning maqsad va vazifalari, unda “talab va iste’mol” darajasi ko‘rsatkichi asosiy mezon sifatida taklif qilingan. I.I.Geysin va boshqalarning ilmiy ishlarida tabiiy muhit va ishlab chiqarish, moddiy boylik saqlanishi hududning rivojlanishini “aholi sifati”ni belgilovchi baholash mezoni deb taklif etgan. Uslubiy nuqtai nazardan, hozirgi bosqichda agrosanoat majmuasini boshqarish tizimini qurishga qo‘yiladigan talablarga katta e’tibor qaratish lozim. Shuningdek, qishloqda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarishni modellashtirishning uch bosqichli yondashuvi taklif etilgan. Shu bilan bir vaqtda, qishloq hududlari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishini boshqarish modellarini raqamlashtirish usullarini yaratish zarur hisoblanadi. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash mezoni bo‘yicha turli xil qarashlar mavjud. Uni baholash mezoni sifatida tadqiqotchilar “talab va iste’mol darajasi” ko‘rsatkichini taklif qilishgan. Ayrim tadqiqotlarda hudud rivojlanishining «aholi sifati» ko‘rsatkichi mezoni taklif etilgan. Bunda aholining sifat ko‘rsatkichi koeffitsiyentini hisoblash ko‘zda tutiladi.

Aholining sifat ko‘rsatkichi, aholini joriy yilda o‘sish soni bilan tabiiy o‘sishda fiziologik nuqsonli aholi soni nisbati ko‘rinishida hisoblanadi. Hozirgi sharoitda ijtimoiy siyosat, iqtisodiyotni jadal rivojlanishini hamda qishloqda yangi ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirishning kuchli vositasi sifatida qaralmoqda. Mehnat, turmush, madaniyat va insonlarning manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishning ijtimoiy masalalarini yechish barcha davlat va xo’jalik organlari, shu jumladan, jamoat tashkilotlarining asosiy faoliyati hisoblanishi kerak.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Avvalo, zamnaviy demografik vaziyat, aholining ko‘payish tendensiyalarini baholash, aholi soni, mehnat resurslari va ularning yoshi va yosh tarkibi bo‘yicha prognoz qilishni amalga oshirish kerak. Shu asosda hududda olib borilayotgan demografik vaziyat va umuman hududdagi mehnat resurslarining bandligiga nisbatan demografik siyosatning eng muhim yo‘nalishlarini aniqlash kerak.

2. Aholi turmush darajasining eng muhim ko‘rsatkichi kishi boshiga oziq-ovqat va boshqa ne’matlarning iste’moli hisoblanadi. Shuning uchun aholining oziq-ovqat masulotlariga bo‘lgan talabini ularning narxi bilan prognoz qilish, birinchidan, aholi daromadlarining zarur darajasini, ikkinchidan, qishloq va shahar aholisi iste’moli uchun ajratilgan ishlab chiqarish hajmlarini aniqlashga imkon beradi. Dasturda aholining o‘sishi, aholi jon boshiga ishlab chiqarishga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda oziq-ovqat ta’minotini prognozlashga maxsus bo‘lim bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan qishloq xo‘jaligini xususiy va individual sektorlarda rivojlantirish bo‘yicha prognoz ko‘zda tutiladi. Bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligida ekologik vaziyat, yer, suv va mehnat resurslarining cheklanganligi, texnologiyalarni joriy etish, fermer xo‘jaliklari ixtisoslashuvi va boshqa qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar hisobga olinishi kerak.

3. Dasturda qishloqning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish muammosiga katta o‘rin ajratilishi kerak. Aholining o‘sishi hisobga olinishi bilan qishloqning uy-joy, sog‘liqni saqlash muassasalari, bolalar bog‘chalari va maktabgacha bo‘lgan ehtiyojini prognozlashni amalga oshirish zarur. Bularning barchasi qishloqni ijtimoiy qayta qurish dasturining tegishli bo‘limlarini ishlab chiqishga va unga erishish marralarini belgilashga imkon beradi.

4. Qishloqning ijtimoiy rivojlanishinii qishloq xo‘jaligi va moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarining ishlashi va rivojlanishi iqtisodiy sharotlaridan ajratilgan holda ko‘rib chiqish mumkin emas. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining maqsadli belgilanishi, asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonni kuzatib borish va zarurati bo‘lsa dasturlarga o‘z vaqtida u yoki bu tuzatishlarni kiritish imkonini beradi. Bularning barchasi aholi turmush darajasini oshirishni boshqarish va rejalshtirishda subyektivlik imkoniyatini oldini oladi. Shu munosabat bilan dasturlarni ishlab chiqilayotgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash mezonlarini ishlab chiqish talab etiladi. Aholining sifat koeffitsiyenti va o‘rtacha intellekt koeffitsiyentining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi dinamikasi bu ko‘payishning rivojlanish yo‘nalishini ko‘rsatadi va sabablarni o‘z vaqtida tahlil qilishga va zarur qarorlarni qabul qilishga, ya’ni aholining o‘sishini boshqarishga imkon beradi.

Taklif etilayotgan mezonning mohiyati global rivojlanish modelida ochib berilgan: aholi soni va uning sifati zarur moddiy tovarlarni ishlab chiqarish insonlarning tabiiy yashash muhiti ko‘rsatkichlarining yomonlashishiga olib kelmaydigan darajada saqlanishi kerak. Bunday modelni amalga oshirish uchun mualliflar global monitoring qilishning uchta tizimlari – aholi, tabiiy (ekologik, ob-havo va boshq.) muhit, ishlab chiqarish tizimlarini yaratishni taklif qilishgan. Bunday tizimlarning tarkibiy qismi, mahalliy yoki hududiy

tizimlar bo'lishi kerak, chunki bu tizimlar tovar ayirboshlash va takror ishlab chiqarishda o'zaro bog'liq.

Shundan kelib chiqish bilangina, mahalliy (hududiy) rivojlanish modeli quriladi. Uning asosiy sharti, "tabiiy muhitni saqlab qolish va bu hududda zarur bo'lgan yashash sifatini ta'minlash" hisoblanadi. Hududlarni barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun inson faoliyati tabiiy muhitga shunday yuklamani ko'rsatishi kerakki, jamiyat tabiiy muhitdan foydalanish chegaralaridan tashqariga chiqmasin. Bularning barchasi hozirgi avlod kelajak avlodlarga yetkazadigan tabiiy resurslarning qimmati behuda sarflanmaydigan tarzda ulardan foydalanishning optimal yo'llarini topishni talab qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. <http://mirznanii.com/a/257730/rol-promyshlennosti-v-mirovom-khozyaystve;www.wb.org;https://stud-files.net/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2022 yildagi PQ-465-sonli "2023-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
3. Samiyeva, G. T. (2022). The Most Important Aspects of Studying the Living Standards of the Population. *Academic Journal of Digital Economics and Stability, Volume 16*, April 2022, Pages 79-83
4. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna, and B. I. Xaydarov. "The Importance of Self-Employment and Self-Reliance in Improving the Well-Being of the Population Self-Employment." *Journal of Marketing and Emerging Economics* 2.5 (2022): 36-41.